


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**70420103 – Xalqaro huquq magistratura  
mutaxassisligining**

***MALAKA TALABI***

**TOSHKENT-2024**



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil «01» 08 dagi 277 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
1.	<b>Umumiy tavsif.....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyat turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>9</b>
3.	<b>Amaliyotga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>12</b>
4.	<b>Fanlar katalogi.....</b>	<b>13</b>
	<b>Bibliografik ma’lumotlar.....</b>	<b>14</b>
	<b>Kelishuv varag‘i.....</b>	<b>15</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

**70420103 – Xalqaro huquq** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi, ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining o'zlashtirish muddati 1 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi**

Malaka talabi 70420103 – Xalqaro huquq mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul – oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

magistratura mutaxassisliklaridan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan bakalavrlar va boshqa manfaatdorlar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari**

70420103 – Xalqaro huquq magistratura mutaxassisligi O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va davlat boshqaruv organlarida; sud va huquqni muhofaza qilish organlarida, diplomatik faoliyatni amalga oshiruvchi davlat idoralari, jumladan, Tashqi ishlar vazirligi markaziy apparati va O'zbekiston Respublikasini xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari, xalqaro hukumatlararo va nohukumatlararo tashkilotlar, shuningdek, turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalar, nodavlat va notijorat tashkilotlarida va boshqa nodavlat tuzilmalarida xalqaro huquq bilan bog'liq tashkiliy jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, ilmiy-tadqiqot muassasasi va markazlarida tegishli sohalari bo'yicha mustaqil ilmiy faoliyat olib borish sohalarini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatining obyektlari**

Qonun ijodkorligi bo'yicha davlat hokimiyati organlarida (Oliy Majlis, Adliya vazirligi va boshqalar);

huquq normalari qo'llaniladigan kasbiy faoliyat obyektlari (davlat organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar);

ichki qonunchilik, xalqaro-huquqiy xujjatlar va sud amaliyotini huquqiy tayyorlash, baholash va sharhlash malakasi (davlat organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar);

xalqaro shartnomalar va diplomatik xarakterga ega hujjatlarni tayyorlash (davlat organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar);

davlatlararo, davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamda xalqaro huquq subyektlari va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro xalqaro huquqiy munosabatlar; xalqaro tashkilotlar tashkiliy-huquqiy faoliyatini yuridik ta'minlash (davlat organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar);

qarorlar qabul qilish nazariyasini amaliyotda qo'llash;

xalqaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, harbiy-siyosiy, ijtimoiy-gumanitar va g'oyaviy munosabatlar hamda madaniyat, fan, ta'lim, xalqaro, xududiy va milliy xavfsizlik sohalaridagi muayyan masalalar bo'yicha qarorlar chiqarishda xalqaro huquq normalarini izlash va ularni qo'llay olish jarayonlari (davlat organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar);

qo'shimcha ravishda oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'quv jarayon (davlat organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar).

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatining turlari:**

xalqaro-huquqiy;

tizimli tahlil va ilmiy-tadqiqot;

tashkiliy-boshqaruv;

huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash;

oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat (o'rnatilgan tartibda) va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Mutaxassislik bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari:**

70420103 – Xalqaro huquq magistratura mutaxassisligi kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Xalqaro-huquqiy faoliyatda:**

xalqaro shartnomalar loyihalarini tayyorlash, tashqi siyosat masalalarga doir milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish, muayyan masalalar bo'yicha qarorlar chiqarishda xalqaro huquq normalarini izlash va ularni amaliyotda qo'llay olish;

xalqaro shartnomalar normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va huquqni qo'llash amaliyotiga joriy eta olish;

xalqaro huquqning xalqaro shartnomalardan boshqa manbalarini huquqiy amaliyotda qo'llay olish;

xalqaro tashkilotlar tashkiliy-huquqiy faoliyatini yuridik ta'minlash;

tashqi iqtisodiy va savdo faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yuridik faoliyat;

xalqaro va milliy xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy asoslarini ishlab chiqish va ularni huquqni qo'llash amaliyotiga joriy etish faoliyati;

xalqaro hukumatlararo va nohukumat tashkilotlar tashkiliy-huquqiy faoliyatini yuridik ta'minlash;

xalqaro sud va arbitrajlarda ishtirok eta olish va ularda davlat manfaatlari hamda O'zbekiston Respublikasi subyektlari manfaatlarini himoya qilish faoliyati;

advokatlik tuzilmalarida faoliyat ko'rsatish;

xalqaro huquqiy masalalarda erkin mushohada yuritish, jahon miqyosida O'zbekiston Respublikasining obro'-e'tibori, tutgan mavqeini mustahkamlash, zarur qarorlarni o'z vaqtida qabul qila bilish;

diplomatik va ish doirasida o'zaro yozishuv, suhbat va muzokaralarni tashkil qilish;

hozirgi zamon xalqaro munosabatlari sohalarida yuzaga kelgan muammolarni tahlil etish, hal eta olish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

### **Tizimli tahlil va ilmiy-tadqiqot faoliyatda:**

mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy tadqiqot loyihalarini tahlil qilishi;

ilmiy-texnikaviy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;

o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, ilmiy referatlar hamda bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etish va ishida ishtirok etish;

ilmiy mavzularga mos jurnallarga maqolalar tayyorlashi;

ilmiy tadqiqotlar olib borishi va natijalari bo'yicha dissertatsiya yozishi;

kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish, tizimli yondashish va tahlil etish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy uquv va ko'nikmalarni qo'llash;

turli darajadagi tadbirlarda mamlakatning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayotiga oid ma'lumotlarni mantiqiy izchil tahlil etishda ishtirok etish;

umumnazariy modellar hamda turli yondashuvlarini qo'llagan holda ilmiy tadqiqotlar olib borish;

tahlil va monitoring olib borish qobiliyatini rivojlantirish va uning asosida xulosa va tavsiyalar ustida ishlash, tahlil natijalarini anglash, baholash va tushuntirib berish, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va bashorat qilish;

kasbiy faoliyatni tizimli yondashuv asosida rejalashtirish, tashkil qilish va amalga qo‘llash;

davlat hokimiyati faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

xalqaro huquq sohasiga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi ilmiy yutuqlarini, maxsus adabiyotlarni va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish;

mavzu bo‘yicha huquqiy axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirishi;

internet tarmog‘idan eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni to‘plash;

ixtisoslikning muayyan sohasi bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy obyektlarni, hodisa va jarayonlarni bilishi, ularni ilmiy-tadqiq qilish usullaridan foydalanishi, tashqi aloqalarda erkin mushohada yuritish, jahon miqyosida O‘zbekiston Respublikasining obro‘-e’tibori, tutgan mavqeini mustahkamlash;

zarur qarorlarni o‘z vaqtida qabul qila olishi;

o‘z ixtisosligi va kasbiy faoliyati doirasida olingan bilimlarni O‘zbekiston Respublikasining manfaatlari bilan bog‘liq holda amaliy, tadqiqiy va uslubiy vazifalarni yechishi;

hozirgi jahon hamjamiyatida muayyan hodisalar va voqealarning mohiyati hamda sabablarini tahliliy baholashi; hozirgi O‘zbekiston sharoitida hukm surayotgan asosiy jarayonlarni chuqur va obyektiv baholay olish uchun olingan bilimlardan unumli foydalanishi;

hozirgi mamlakat rivojida muayyan hodisalar haqidagi turli axborotlarni to‘plash, tartibga keltirish va tanqidiy tahlil tahlil etishni amalga oshirishi lozim qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

davlat boshqaruvi organlarida, shu jumladan, korxonalar, muassasa va tashkilotlarda kasbiy faoliyatni amalga oshirish;

davlat manfaatlarini himoya qila olish, nizoli masalalarda xalqaro arbitraj sudlarida davlat manfaatini himoya qilish va milliy qonunchilikni xalqaro standartlar asosida yanada boyitish;

doimiy shaxsiy va kasbiy rivojlantirishga intilish;

jamiyatni umuminsoniy va demokratik qadriyatlar asosida takomillashtirishga intilish;

jamoalar bilan konstruktiv faoliyat olib borish, guruhda ishlash va guruh ishini boshqarish;

zamonaviy jamiyatning rivojlanishida axborotni tahlil qilish, uni davlat va jamiyat hayotidagi konstruktiv va destruktiv rolini aniqlash, uni yaratish va uzatishning texnologik imkoniyatlarini hamda axborot xavfsizligining asosiy talablarini bilish;

zamonaviy jamiyatning rivojlanishida axborotning mohiyatini tushunish, uni davlat va jamiyat hayotidagi konstruktiv (yaratuvchanlik) va destruktiv (buzg‘unchilik) rolini anglash, uni yaratish va uzatishning texnologik imkoniyatlarini hamda axborot xavfsizligining asosiy talablarini bilish;

ish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish;  
kasbiy qobiliyatdan tadqiqot ishlarini tashkil qilishda foydalanish;  
kasbiy faoliyat natijalari uchun shaxsiy mas'uliyatni ola bilish;  
nostandart vaziyatlarda faoliyat olib borish ko'nikmasiga ega bo'lish;  
o'z kasbiy va shaxsiy faoliyatini tanqidiy baholash;  
o'z kasbini ijtimoiy mavqesini tushunish, kasbiy va fuqarolik majburiyatni bajarishda yuqori intilishga ega bo'lish;  
xalqaro nodavlat va notijorat tashkilotlarda kasbiy faoliyatni amalga oshirish;  
xalqaro huquqiy masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonini tahlil qilish;  
xalqlararo muloqotning korporativ madaniyati, muzokaralarda kompromis qobiliyatlariga ega bo'lish;  
xodimlar ishini tashkil qilish va boshqaruvga oid qarorlarni qabul qilish;  
egallaydigan lavozimi bo'yicha bilimlarga va mustaqil faoliyat ko'rsatish ko'nikmalariga qo'yiladigan talablarga javob bera olish;  
ko'p millatli va ko'p konfessional guruhlarda ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

### **Huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyatida:**

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash;  
normativ-huquqiy hujjat loyihasini ekspertiza qilish;  
normativ-huquqiy hujjatlar monitoringini amalga oshirish;  
normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash;  
davlat organi vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish yoxud ishlab chiqishda qatnashish;  
davlat organining idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqish yoxud ishlab chiqishda hamda ularni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga huquqiy ekspertizadan o'tkazish va davlat ro'yxatiga olish uchun yuborishda qatnashish;  
mustaqil yoki boshqa bo'linmalar bilan birgalikda ekspertizadan o'tkazish va davlat organi bilan kelishish uchun taqdim qilingan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish, ularning qonunchilikka va qonunchilik texnikasi talablariga muvofiqligi yuzasidan huquqiy xulosalar tayyorlash;  
normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari bo'yicha e'tiroz va takliflar bo'lmasa, ularga tegishli tartibda viza qo'yish;  
davlat organiga kelib tushgan va davlat organining o'zi tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarning tizimlashtirilgan hisobini belgilangan talablarga muvofiq yuritish, ularning saqlanishini va nazorat qilinishini ta'minlash;  
davlat organining normativ-huquqiy hujjatlar fondini to'ldirish, shu jumladan, fondni kodekslar, qonunlar, sharhlar, axborotnomalar va boshqa huquqiy nashrlar bilan butlash choralari ko'rish, davlat organi rahbariyatiga huquqiy nashrlarga obuna bo'lish haqida takliflar kiritish;  
davlat organi vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha qonun hujjatlari to'plamlarini nashr etishga tayyorlash;



davlat organi rahbariyati uchun qonunchilik masalalari bo'yicha tahliliy materiallar tayyorlash.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatda (o'rnatilgan tartibda):

o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallash;

elektron o'qitish usullarini egallash;

oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

ta'lim standartlari va talablari, boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **Umumiy kompetensiyalar:**

dunyoqarash pozitsiyasini shakllantirish uchun falsafiy bilimlar asoslaridan foydalanish qobiliyati.

axborotni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalari, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

global kompyuter tarmoqlarida axborot bilan ishlash qobiliyati.

ijtimoiy, etnik, konfessional va madaniy farqlarni tolerantlik bilan idrok etuvchi jamoada ishlash qobiliyati.

o'z-o'zini tashkil qilish va o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyati.

### **Kasbiy kompetensiyalar:**

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga, shuningdek, umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalari va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga rioya qilish qobiliyati;

jamiyat va davlat manfaati uchun mehnat qilish qobiliyati;

kasbiy burchlarini vijdonan bajarish, advokat etikasi tamoyillariga rioya qilish qobiliyati;

aholining yuridik hamjamiyatga ishonchini saqlash va mustahkamlash qobiliyati;

ogʻzaki va yozma nutqni mantiqiy jihatdan toʻgʻri, oqilona va aniq qurish qobiliyati;

oʻz kasbiy mahorat darajasini oshirish qobiliyati;

chet tilida professional muloqot qilishning zarur koʻnikmalarini egallash qobiliyati.

magistratura mutaxassislik boʻyicha nazariy va amaliy bilimlarni, oʻquv va koʻnikmalarni shakllantirishi;

magistratura mutaxassisligi boʻyicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalana olish koʻnikmalarini rivojlantirishi;

hozirgi zamon xalqaro-huquqiy munosabatlari jarayonlarni tizimli tahlil qilishi, modellashtirishi va istiqbollashtirishi;

xalqaro huquq fanini rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari, nazariy va amaliy muammolarini, xorijiy konsepsiyalari va ularning oʻziga xos xususiyatlarini bilishi;

hozirgi zamon xalqaro huquqida huquqiy subyektlilikning nazariy va amaliy muammolariga oid tasavvurlarga ega boʻlishi;

xalqaro huquq normalari bilan milliy huquqning oʻzaro taʼsiri, xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka implementatsiyasining nazariy va amaliy muammolarini yecha olishi;

xalqaro tinchlik va xavfsizlik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi xalqaro huquq subyektlari oʻrtasidagi hamkorlik masalalariga oid BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning faoliyati va qarorlarini tahlil qilish va mazkur yoʻnalishda hamda har qanday subyektlar bilan barcha sohalardagi hamkorlik aloqalarida Oʻzbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini himoya qila olishi;

Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomaviy tajribasi hamda xalqaro shartnomaviy huquqda Oʻzbekistonning milliy manfaatlari toʻgʻrisida tasavvurga ega boʻlishi;

xalqaro sudlar va xalqaro sudlov jarayoni asoslarini bilishi;

xalqaro tinchlik va xavfsizlikka oid xalqaro huquqiy prinsiplar va normalarni xalqaro nizolarni tinch yoʻl bilan hal etish maqsadida qoʻllay olishi;

xalqaro tinchlik va xavfsizlik sohasidagi Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro-huquqiy asoslarini milliy qonunchilik va huquqni qoʻllash amaliyotiga qoʻllashi;

xalqaro tashkilotlar organlarida Oʻzbekistonning ishtiroki va unda Oʻzbekistonning milliy manfaatlarini himoya qila olishi;

xalqaro konferensiyalarda mamlakatning milliy manfaatlarini xalqaro huquqning umumeʼtirof etilgan normalar va prinsiplari hamda milliy qonunchilik asosida himoya qila olishi;

Oʻzbekistonning xalqaro tashkilotlar tizimidagi ishtirokini yanada takomillashtirish borasida ilmiy asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va ularni tegishli ravishda ilgari surish koʻnikmalariga ega boʻlishi;

inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy usullari va vositalarini to'g'ri qo'llay olish va ularni xalqaro huquq va milliy qonunchilik me'yorlari asosida ilmiy asoslay olishi;

inson huquqlari bo'yicha xalqaro mexanizmlar va ularning faoliyatini tahlil qilish asosida undagi amaliy muammolarning ilmiy asoslantirilgan taklif va tavsiyalarini ishlab chiqishi;

inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqiy normalarning amaliyotga qo'llashning monitoringini olib borishi;

BMT kabi xalqaro tashkilotlarning inson huquqlari bo'yicha xalqaro monitoring organlarida O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini himoya qila olishi;

inson huquqlari sohasida xalqaro huquqiy normalar asosida milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va ularni ilgari sura olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalarni ta'minlashi kerak.

xalqaro huquqiy hujjatlar mazmunini to'g'ri tushunish, xalqaro huquqiy tushunchalar bilan erkin va to'g'ri ish yurita olish;

zamonaviy xalqaro munosabatlarda yuzaga keladigan muammolarni xalqaro huquq nuqtai nazaridan mustaqil tahlil qilish qobiliyati;

xorijiy davlatlardagi eng dolzarb hodisalarni baholashning muayyan muammosini hal qilishda qiyosiy tahlil qilish va ko'p tarmoqli tahliliy vositalarni birlashtirish qobiliyati;

chet el qonunchiligi normalarini sudlar va amaliyotda talqinini hisobga olgan holda to'g'ri tushunish va qo'llash qobiliyati;

chet tilida kasbiy faoliyatni amalga oshirish;

so'z tanlashda qiyinchiliklarga duch kelmasdan, ravon, o'z fikrini shakllantirish va ifodalash, har qanday suhbatni qo'llab-quvvatlash qobiliyati;

murakkab mavzularni aniq va puxta bayon qilish, tarkibiy qismlarni yagona bir butunga birlashtirish, individual qoidalarni ishlab chiqish va tegishli xulosalar chiqarish qobiliyati;

kasbiy mavzularda notiqlikni o'rgangan;

batafsil xabarlarni tushunish qobiliyati, haquqiy audio manbalardan chet tilida maxsus xarakterga ega bo'lgan ma'lumotlarni vazifaga muvofiq adekvat idrok etish va qayta ishlash qobiliyati;

katta hajmdagi murakkab matnlarni, ularning stilistik xususiyatlarini tushunish, katta hajmdagi maxsus maqolalar va texnik ko'rsatmalarni tushunish qobiliyati;

kasbiy masalalar bo'yicha adabiyotlarni o'qish va tushunish qobiliyati;

o'z fikrini yozma ravishda aniq va mantiqiy ifodalash va o'z nuqtai nazarini batafsil yoritish, xatlarda, hisobotlarda murakkab muammolarni batafsil bayon qilish, eng muhim bo'lgan narsani ta'kidlash, mo'ljallangan qabul qiluvchiga mos keladigan til uslubidan foydalanish qobiliyati;

chet tilida rasmiy va norasmiy xat yozish, hujjatlar, ko'rsatmalar rasmiylashtirish, elektron pochta xabarlarini, rejalar, rezyumelar tuzish, anketa va deklaratsiyalarni to'ldirish;

turli og'zaki va yozma manbalardan, shu jumladan, Internetdan chet tilidagi faktik ma'lumotlarni tushunish, ajratib olish va professional tahlil qilish qobiliyati;

kasbiy mavzulardagi hujjatlar, maqolalar, xatlar, ko'rsatmalarni chet tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan chet tiliga tarjima qilish qobiliyati;

asosiy ma'lumotlarni yozishda qayd etish;

og'zaki ikki tomonlama tarjima jarayoni.

### **3. AMALIYOTLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

Mutaxassislik bo'yicha ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik amaliyot o'tkaziladi:

ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik amaliyot oliy ta'lim muassasasining ixtisoslashtirilgan kafedralarida olib boriladi va tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

**Bibliografik ma'lumotlar**

UDK 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

**Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat, asosiy ta'lim dasturi, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, huquq normalari, huquq shakllari, huquq ijodkorligi, xalqaro huquq, xalqaro huquq manbalari, xalqaro tashkilotlar, xalqaro konferensiya, diplomatik huquq, konsullik huquqi, xalqaro huquq tarmoqlari, xalqaro jinoyat huquqi, xalqaro jinoyatlar. xalqaro xarakterga ega bo'lgan jinoyatlar, xalqaro deliktlar, xalqaro jinoyat sudlari, kollektiv xavfsizlik, qurolsizlanish, xalqaro tashkilotlar, BMT, xalqaro konferensiya, inson huquqlarining nazariy asoslari, xalqaro bojxona munosabatlari, xalqaro iqtisodiy integratsiyalar sharoitida bojxona hududi, ta'rif boshqaruvi va bojxona imtiyozlari, bojxona sohasidagi xalqaro tashkilotlar, qurolli mojarolar huquqining qo'llanish doirasi, Gaaga huquqi normalari, Jeneva huquqi muammolari.

# KELISHUV VARAG'I

## ISHLAB CHIQLILGAN:

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Rektor S.S.Safoyev

(imzo)

2024-yil « 5 » 06



## KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi  
Tashqi ishlar vazirligi

Vazirning birinchi o'rinbosari  
B.J.A'loyev

2024-yil « 6 » 06



## KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi  
Direktor M.R.Boltabayev

2024-yil « 6 » 06



O'zbekiston Respublikasi Advokatlar  
palatasi

Sh. Sadiqov  
(F.I.Sh.)

2024-yil « 7 » 06



## KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ 8 ” 06 2024-yil

Biz quyida imzo qo'yuvchilar Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti hamda Tashqi ishlar vazirligi "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatori"ga muvofiq "70420103 – Xalqaro huquq" hamda "70420109 –Xalqaro biznes huquqi" magistratura mutaxassisliklari malaka talablari ishlab chiqilganligi haqida axborot berilib, ularni muhokama qilish hamda ushbu ishlab chiqilgan malaka talablari mazmuni bilan tanishtirib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

### **70420103 – Xalqaro huquq**

### **70420109 –Xalqaro biznes huquqi**

magistratura mutaxassisliklarining malaka talablarini ishlab chiqishda kadrlar iste'molchilari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan qo'yilgan talablar inobatga olingan.

Shuningdek, malaka talablarini ishlab chiqilishida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-sonli Farmoni, 2022-yil 23-iyuldagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-son hamda 2019-yil 1-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-sonli qarorlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi "Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 470-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2020-yil 9-yanvardagi RA1/1-20-sonli topshirig'i, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 30-iyundagi "2020/2021 o'quv yilidan kredit-modul tizimiga o'tish to'g'risida"gi 357-son buyrug'i, YUNESKO tomonidan joriy etilgan "Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi" (TXSK 2011) va TXSK: "Ta'lim va kasbiy tayyorlash sohalari" (TXSK-S 2013), hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar" O'zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash

to'g'risida"gi 35-2021-sonli buyrug'ida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib, shu bilan birga xalqvatro tajribalarga muvofiq ishlab chiqilgan.


Yuqoridagi magistratura mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlangan malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqish asosiy kadrlar iste'molchilari bo'lgan vazirliklar, idoralar va boshqa korxonalar mutaxassislari tomonidan muhokamadan o'tkazilib kelishildi.

Yuqoridagi mutaxassisliklar bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablarini o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etilishi maqsadga muvofiq.

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti**


**Rektor S.S.Safoyev**

  
(imzo) M.O.  
Tashkent

« 5 » 06 2024-yil

**O'zbekiston Respublikasi  
Tashqi ishlar vazirligi**


**Vazirning birinchi o'rinbosari  
B.J.A'loyev**

  
(imzo) M.O.

« 6 » 06 2024-yil




**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi  
Direktor M.R.Boltabayev**

  
(imzo) M.O.

« 8 » 06 2024-yil



**O'zbekiston Respublikasi  
Advokatlar palatasi**

**raisi**  
  
(imzo) M.O.

« 7 » 06 2024-yil

